

**A.S. Pushkin**

# **Ertaklar**

**Rus tilidan MIRTEMIR tarjimasi**

**Rassomlar**

**Ye. Shurlapova va S. Podivilov**

**Cho'lon nomidagi nashriyot-matbaa**

**ijodiy uyi**

**Toshkent – 2010**

# MUNDARIJA

SHOH SALTAN HAQIDA, uning azamat va shavkatli o'g'li bahodir knyaz Gvidon Saltanzoda ham suluv shohqiz Oqqush haqida.....	3
BALIQCHI VA BALIQ HAQIDA ERTAK.....	55
O'LIK BEKACH VA YETTI BAHODIR HAQIDA ERTAK.....	75
OLTIN XO'ROZ HAQIDA ERTAK.....	111

• • •

## MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN RUS KLASSIK YOZUVCHILARINING ERTAKLARI

A. S. PUSHKIN  
**ERTAKLAR**

1- KITOB

Muharrir AZIMBOY BOBONIYOZOV • Badiiy muharrir ALYONA DELYAGINA  
Texnik muharrir YELENA TOLOCHKO • Musahhih MAHMUDA USMONOVA

Bosishga ruxsat etildi 30.03.2010. Bichimi 60×90<sup>1</sup>/<sub>8</sub>. AcademyUz garniturası. Ofset qog'ozi. Shartli b.t. 32,0. Nashr b.t. 31,6. 3000 nusxada chop etildi. Shartnoma № 2–2009. Ushbu kitobning pochta orqali yetkazib berish xarajatlari bilan narxi 12490 so'm. Buyurtma № 96.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati cheklangan jamiyat bosmaxonasida chop etildi. 100200 Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10- uy.

**84(2Ros-Rus)1**

**p96**

**Pushkin, Aleksandr Sergeyevich.**

**Ertaklar/** A. S. Pushkin; rus tilidan Mirtemir tarj.; rassomlar: Ye. Shurlapova, S. Podivilov; — Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. — 256 b. — Tit. v. va matn. paral. o'zb. va rus tillarida.

«Naqadar ajoyib bu ertaklar. Har biri dostonidir» — deb yozgan edi A. S. Pushkin ertaklar to'g'risida. Rus adabiyotining asoschisi A.S. Pushkin ilk bor ertakni badiiy adabiyotning mustaqil bir tarmog'i sifatida shakllantirdi. Shoir tomonidan yaratilgan ertaklar jahon adabiyotining nodir namunasi sifatida o'quvchilar mehrini qozonib kelmoqda va ko'plab tillarga tarjima etilgan. Ushbu kitobdan o'rin olgan ertaklar xassos shoirimiz Mirtemir tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan. Ezgulik elchisi bo'lgan ertaklarni o'qib, aziz bolajonlarimiz olam-olam taassurot oladi degan umiddamiz.


**BBK 84(2Ros-Rus)1**


S **2004070000-2**  
**360/04/-2009** -2010

ISBN 978-9943-05-251-2

© Rosman Publishing, 2001

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010- y.





SHOH  
SALTAN  
HAQIDA,

uning azamat va shavkatli o'g'li

bahodir knyaz

Gvidon Saltanzoda

ham suluv shohqiz

Oqqush

haqida ertak



**D**eraza yonida uch qiz  
Uzoq tunda uyqusiz,  
Urchuq yigirishardi  
Ham suhbat qurishardi.  
To'ng'ich boshlab dedikim:  
«Men malika bo'lsaydim,  
Olamga o'zim yakka  
Berardim to'y-ma'raka».  
O'rtanchasi dedikim:  
«Men malika bo'lsaydim,  
Yer yuziga bir o'zim  
To'qib berardim cho'zim».



Eng kenjasi dedikim:  
«Men malika bo'lsaydim,  
Shohimizga pahlavon  
Tug'ib berardim o'g'lon».

**N**aq shunday degan mahal  
Eshik g'irchillab sag'al,  
Kirib keldi banogoh  
Yurtni so'rab turgan shoh.  
Butun suhbat chog'ida  
Qo'raning uyog'ida —  
Eshitib turgan edi;  
So'nggi so'z yoqib, dedi:  
«Suluv qiz, salom, senga,  
Malika bo'lgin menga,  
Tushganda kuzak, mezon,  
Tug'ib ber botir o'g'lon.  
Sizlar ham, oppoq qizlar,  
Tug'ishgan quvnoq qizlar,  
O'ringizdan turingiz,  
Orqamizdan yuringiz.  
Oshpaz bo'lur to'ng'ich qiz,  
Bo'z to'qir o'rtanchangiz!»

**U**ydan chiqib shu zamon,  
Ketdilar saroy tomon.  
Shoh paysalga solmay hech,  
Qizni oldi o'shal kech,  
To'y oqshomi shoh Saltan —  
Yosh malika ikovlon  
Yonma-yon o'tirdilar,  
Ajoyib bazm qurdilar;



Bazmdan so'ng mehmonlar —  
Saltanga qadrdonlar,  
Yotoqxona to'riga,  
Fil suyakli so'riga  
Joyni qalin solishdi,  
Qiz va kuyov qolishdi.


Oshpaz qiz bag'rin tig'lar,  
Bo'zchi qiz yum-yum yig'lar,  
Tajang ikov egachi...  
Navqiron malika-chi,  
So'zida turib butun  
Yukli bo'ldi o'shal tun.





U

vaqt borardi urush.  
Shoh Saltan boshlab yurish,  
Otlandi tulporiga:  
«Unutma, — der yoriga, —  
Ehtiyot bo'l o'zingga,  
Va'dangga — o'z so'zingga!»  
Shu ketgancha ko'p zamon  
Jangda yurdi shoh Saltan.  
Yetib oyi, kuni ham,  
To'qliday tetik, bardam,  
O'g'il ko'rdi kelinchak.  
Xuddi ona burgutdek —  
Chaqaloqqa parvona,  
Girgitton bo'lur ona.  
Bajarib o'z va'dasin,  
Shod qilay deb dadasin  
Chopar jo'natdi shu kun  
Shohga suyunchi uchun.  
To'quvchi bilan oshpaz —  
Dillarin o'rtab g'araz,  
Babarixa bosh qo'shib,



Singil qasdiga tushib,  
Solmoqchi bo'lib kulfat,  
Yozdilar bo'lak bir xat,  
Jo'natib o'zga chopar,  
Bitdilar shunday xabar:  
«Malika tug'di, biroq,  
Na o'g'il, na qizaloq,  
Na qurbaqa, na sichqon —  
Badbashara bir hayvon».

**Ch**opar ham yetdi omon.  
Shoh darg'azab va hayron  
Eshitib shum xabarni,  
Osmoq bo'lar choparni;  
Lekin rahm etar bu gal:  
«O'zim borib, qilgum hal,  
Kutsin, — der, — qaytishimni,  
Va hukm aytishimni».

**Ch**opar yo'rtib yeladi,  
Yorliq olib keladi.  
Ammo, to'quvchi, oshpaz —  
Battarroq boshlab g'araz,  
Babarixa bosh qo'shib,  
Yorliq iziga tushib,  
Mast qildilar choparni;  
U keltirgan xabarni —  
Bildirmayin oldilar,  
O'zga yorliq soldilar.  
Mast chopar shu kuniyoq  
Yorliq keltirdi shundoq:  
«Boyarlar, farmon sizga,


Hayallamay ish boshlang:  
Tubsiz, teran dengizga  
Yashirin eltib tashlang  
Tuqqan onasini ham,  
Badbaxt bolasini ham!»  
Yorliq bo'lgach na chora,  
Boyarlar ham dil pora,  
Bo'ysunib farmonga,  
Malika-yu, Saltanga  
Achinib, kuyib bari,  
Yurdilar ko'shk sari.  
Shoh Saltanning yorlig'in,  
Taqdirda ne borligin  
O'qidilar shu zamon,  
Hamma gap bo'ldi ayon.  
Keyin, tez ishga tushib,  
Beka-yu o'g'lin qo'shib,  
Bochkaga joyladilar,  
Mum surtib, moyladilar,  
Otdilar dengiz tomon,  
Buyurgan deb shoh Saltan...

**T**iniq ko'kda yulduz lovullar,  
Ko'k dengizda to'lqin shovullar,  
Ko'kda bulut suzadi,  
Suvda bochka yuzadi.  
Bochka tebrangan sari,  
Sho'rlik beva singari —  
Malika oh chekadi,  
Ko'z yoshini to'kadi;  
O'g'il bo'lsa tinmayin,  
O'sardi soat sayin.  
Kun-tun yig'lar malika,

Bag'rin tig'lar malika.  
O'g'li to'lqinni qistar,  
To'lqindan ko'mak istar:  
«Hoy to'lqin, ozod to'lqin,  
Sen sho'xsan ham sershovqin,  
O'z erkingcha yayraysan,  
Dengiz toshin qayraysan,  
Kemalarni ko'tarib,  
Xohlaganda to'ntarib,  
Ko'pirasan, toshasan,  
Qirg'oqlardan oshasan.  
Bizni halok etmagil,  
Xalos etmay ketmagil!»  
To'lqin esa unadi,  
Qirg'oq tomon jo'nadi,  
Yetib birpasdagina,  
Bochkani astagina —  
Qo'yib suv yoqasiga,  
Qaytdi tez orqasiga.  
Qutulib qoldi ikov,  
Yerni sezdilar darrov,

Lekin, kim bergay najot?..  
Tangri qo'llamas, nahot?  
O'g'lon turdi oyoqqa,  
Bosh taqab tepa yoqqa,  
Kerishdi andakkina:  
«Darcha ochsak-chi, ena, —  
Shu yerdan hovli tomon?»  
Va buzib chiqdi o'g'lon.

**I**kovi endi erkin,  
Atrofga boqar sekin:  
Ko'rinar keng chamanzor,  
O'rtasida tepa bor,  
Aylana — yashil dengiz,  
Tepada — eman yolg'iz.  
O'g'lon o'ylanar andak,  
Topmoqlik darkor yemak.  
Eman sari yo'l soldi,  
Bir shox sindirib oldi;  
Shoxni egdi shu zamon.







Bo'ynidan ipak topib,  
Bog'ladi tortib-tortib,  
Tayyor bo'ldi zap kamon.  
Ingichka chiviq oldi,  
O'q yasab, yonga soldi,  
Ham jo'nab qoldi darrov,  
Suv bo'yidan izlab ov.

Dengizga yetdi bola,  
Eshitar bo'g'iq nola...  
Dengiz notinch, ish yomon,  
Oqqush topolmay omon —  
Jon chekar va urinar,  
To'lqinlarda surinar,  
Suvlarga urib qanot,  
Ti pirlar, izlar najot.  
Tepasida bir kalxat,  
Qanot qoqar bahaybat,

Kelardi panja ochib,  
Tumshug'idan qon sochib...  
Shu dam o'q uchib ketdi,  
Kalxatga borib yetdi,  
Bo'ynidan qoni oqib,  
Suvga tushdi tutaqib.  
Yoyni tushirib o'g'lon,  
Dengizga boqar hamon:  
U kalxat cho'kmakdaydi,  
Va faryod chekmakdaydi,  
Tovushi qushga o'xshamas,  
Oqqush esa to'xtamas,  
Aylanadi, cho'qiydi,

Qanot urib, nuqiydi,  
Tezroq o'lishin kutar  
Va oxiri g'arq etar.  
Kelar shahzoda tomon,  
Va ruscha so'zlar ravon:  
«Ey, mening xaloskorim,  
Azamat jig'adorim,  
Qayg'urma mening uchun,  
Och qolaman, deb uch kun,  
O'q bekor ketdi, dema,  
Bekor ketmas, g'am yema.  
Yaxshiliging bilaman,  
Keyin xizmat qilaman:





Oqqushmas qutqarganing,  
Qiz — bu xalos etganing;  
Otganing — u hiylagar,  
Kalxat emas, jodugar.  
Unutmayman hech seni,  
Har qayda topgung meni.  
Biroq, endi sen qaytgil,  
Qayg'urmayin tinch yotgil!»

Shu gapni aytib ildam,  
Uchdi-ketti oqqush ham.  
Ona-bola noiloj,  
Uxlab qoldi shu tun och.  
Ko'zin ochsa shahzoda,  
Ne hodisa dunyoda:  
Ko'z oldida zo'r shahar,  
Paydo bo'libdi sahar;



Kungirali ko'shk bor,  
Aylana baland devor,  
Oq devor orqasida —  
Cherkovlar — ezgu joylar,  
Va uylar orasida —  
Talay naqshin saroylar...  
Uyg'otar onasini,  
Ona lol... «Va'dasini —  
Unutmabdi, — der o'g'il, —  
Oqqush sharofati bull!»  
Yurdilar shahar tomon,  
Ichkari kirgan zamon —  
Chalinar shodiyona,  
Hayron o'g'il va ona,  
Atrofdan suron kelar,  
Peshvoz olamon kelar,






Cherkov a solib sado —  
Kuylashar madh-u sano.  
Oltin arava to‘la  
Saroy chiqqan bir yo‘la.  
Hammayoqdan beto‘xtov  
Yog‘ar olqish va maqto‘v,  
Shahzodaning boshiga —  
Knyaz - bo‘rk kiygizishar,  
Ham kelishib qoshiga —  
Sen knyazimiz, deyishar.  
Ona rozi bu baxtga,  
O‘g‘il kirib poytaxtga,  
Knyaz mansabin oldi,  
Knyaz Gvidon ataldi...

**Y**el dengizda sayr etar,  
Kemani haydab ketar;  
Kema to‘lqin yoradi,  
Yelkan ochib boradi.  
Kemachilar hayron, lol,  
O‘zgarmish tanish orol,  
Boqishar orol tomon,  
Ko‘rar mo‘jiza ayon:  
Zar qubba yangi shahar,  
Qorovulxonasi bor,  
To‘plar olov yog‘dirar,  
Kema to‘xtashi darkor.  
Barcha chiqar qirg‘oqqa,  
Knyaz chaqirar qo‘noqqa...  
Ziyofat, bazm qurar,  
Undan so‘ng savol so‘rar:  
«Xo‘sh, ne savdo etasiz,  
Endi qayon ketasiz?»


Javob aytar qo'noqlar:  
«Dunyo kezdik ko'p choqlar,  
Suvsar, tulki terisi,  
Savdo-sotiq — barisi;  
Muhlat yetdi bu zamon,  
Ketayapmiz Sharq tomon —  
Orol bor, nomi Buyan,  
Biz yoqalab o'tgaymiz,  
Ham shavkatli shoh Saltan  
O'lkasiga yetgaymiz».  
Knyaz so'z ular so'zga:  
«Janoblar, oq yo'l sizga,  
Dengiz, okeandan o'ting,  
Ham Saltan shohga yeting,  
Mendan yetkazing salom!»  
Qo'noqlar ketdi tamom.  
Knyaz kuzatib qoldi,  
Uzoq-uzoq ko'z soldi,  
Ko'ngli qayg'ulik, noxush,  
Ko'rsaki yuzar oqqush.  
«Salom, jonginam — knyaz o'g'lon.  
Nechun holing parishon,  
Bulutli kun singari,  
Yog'ingar tun singari —  
Ne sabab ko'ngling noxush?»  
Savol so'radi oqqush.  
Knyaz oqqushga dedi:  
«Jonimni g'ussa yedi:  
Otamni ko'rsam deyman,  
Shu to'g'rida g'am yeyman».  
Oqqush der: «So'zim eshit!  
Istaysanmi, ey yigit,  
Dengizda uchib ketsang,  
Kemani quvib yetsang?»

Buning uchun qulay yo'l, —  
Knyaz, mayli, chivin bo'll.»  
Oqqush ham qanot qoqar,  
Suvlar chayqalib oqar,  
Yigitga suv sochar mo'l,  
Boshdan-oyoq qilar ho'l,  
Oqqush so'zi chiqib chin:  
Knyaz bo'ladi chivin.  
Darhol uchib ketadi,  
Kemaga ham yetadi,  
Asta o'tib eshikdan,  
Joy olar bir teshikdan.

**Y**esar, daydib yurar,  
Yelkema sho'x yugurar,  
Orollardan o'tadi,  
Shoh yurtiga yetadi,  
Olisdan jozibador  
Ko'rinar aziz diyor,  
Chiqar bari qirg'oqqa,  
Saltan chorlar qo'noqqa.




Chivin ham uchib ketdi,  
To'g'ri saroyga yetdi,  
Ko'rsaki: shohlarga xos  
Kiyinib zarrin libos,  
Saltan taxtda o'tirar  
Ham g'amgin xayol surar;



Toj yarqirar boshida,  
Lekin uning qoshida —  
Kampir, to‘quvchi, oshpaz,  
O‘ylari nuqul g‘araz,  
Qarashar shoh yuziga,  
Tikilishar ko‘ziga...  
Shoh ziyofat quradi,  
Shunda savol so‘radi:  
«Janoblar, ne ko‘rdingiz,  
Ham qaylarda bo‘ldingiz?»  
Ne gap uzoq tomonda?  
Ne mo‘jiza jahonda?»






Javob aytar qo'noqlar:  
«Dunyo kezdik ko'p choqlar,  
Talay yurtlarda yurdik,  
Shunday mo'jiza ko'rdik:  
Bordi tikka bir orol,  
Unda ko'rdik ajib hol;  
Bo'sh edi, jon yo'q edi,  
Manzil, makon yo'q edi,  
O'sgandi eman yolg'iz;  
Aylana ko'm-ko'k dengiz;  
Hozir bo'lmish — obod joy,  
Yangi shahar, oq saroy,  
Zar qubba butxonalar,  
Chorbog'lar, koshonalar,  
Unda knyaz Gvidon  
Yubordi senga salom».  
Shoh Saltan hayron edi:  
«Agar o'lmasam, — dedi, —  
Shu orolga borgayman,  
Knyazga mehmon bo'lgayman».  
Kampir, to'quvchi, oshpaz, —  
O'ylari nuqul g'araz,  
Yuborgusi kelmaydi,  
Bir qadam ham jilmaydi.  
Makr-la qisib ko'zin,  
Oshpaz qiz boshlar so'zin:  
«Ajab, g'alati xabar...  
Emish... orolda shahar!  
Men aytay, bilsin barcha,  
O'rmonda o'sar archa,  
Tagida bor olmaxon,  
Qo'shiq aytadi biyron,  
Olmaxon o'ynar po'choq  
Ham chaqar nuqul yong'oq,





Puc mas c aqqan yong'og'i,  
Oltin hamma po'chog'i,  
Zumrad ekan mag'izi,  
Bu — mo'jiza nag'izi!»  
Ochilar Saltan bahri,  
Qistar chivinning qahri,  
Chaqdi xo'b rostlab o'zin —  
Xolasining o'ng ko'zin,  
Oshpaz rangi oqarar,  
Hayron va g'ilay qarar,  
Joriyalar ham singil,  
Shum kampir bo'lib yakdil —  
Ko'tarishar harxasha:  
«Xax, sen la'nati pashsha,  
Biz seni..!» deb quvlashar,  
Qichqirishar, chuvlashar.  
Chivin darchadan o'tar,  
Uchib orolga ketar.

**K**nyaz sohilda yurar,  
Suvga termilib turar.  
Ko'ngli, nechundir, noxush,  
Boqsaki, yuzar oqqush.  
«Salom, jonginam — knyaz o'g'lon;  
Holing nechun parishon,  
Bulutli kun singari,  
Yog'ingar tun singari —  
Ne sabab ko'ngling noxush?»  
Savol so'radi oqqush.  
Knyaz oqqushga deydi:  
«Jonimni g'ussa yeydi:  
Men eshitdim qiziq gap,  
Balki yolg'on, ne ajab,  
Mo'jiza deydi barcha;  
O'rmonda o'sar archa,  
Tagida bir olmaxon,  
Qo'shiq aytarmish biyron,  
Olmaxon kuylar, qandoq,  
Va chaqar oltin yong'oq,  
Puchmas chaqqan yong'og'i,  
Oltin hamma po'chog'i,  
Mag'zi esa sof zumrad,  
Meniki bo'lsa shoyad!»  
Oqqush deydi shu nafas:  
«Bu gap hech yolg'on emas!  
Knyaz, aslo yema g'am,  
Va o'ksima, jonginam,  
Men uni xo'p bilaman,  
Senga tayyor qilaman».  
Knyaz ham yengil tortib,  
Uyiga ketar qaytib,  
Darvozadan kiradi,



Ne hodisa ko'radi:  
Baland archa tagida,  
Hammaning ko'z o'ngida,  
Olmaxon kuylar, qandoq,  
Va chaqar oltin yong'oq,  
Zumradin buyon qo'yar,  
Po'chog'in uyon qo'yar,  
Ham taxlar bo'lak-bo'lak.  
«Bog'da yoki bo'stonda»,  
Deb kuylar, chalib hushtak,  
Olamon to'rt tomonda...



Knyaz xo'p hayron edi:  
«O'lma, e oqqush, — dedi, —  
Tangrim, o'zing quvonch ber,  
Oqqushga ham yupanch ber!»  
Keyin, olmaxon uchun —  
Joy soldi, billur butun,  
Tayin qildi qorovul:  
Mirzaga buyurdi ul:  
«Olgin yong'oq hisobin,  
Sen bergaysan javobin»  
Daromad — knyaz o'g'longa,  
Va balli — olmaxonga...

**Y**

el dengizda sayr etar,  
Kemani surib ketar,  
Kema to'lqin yoradi,  
Yelkan ochib boradi,  
Yuzar orol yonida.  
Zo'r shahar tomonida —  
Sohildan to'p otilar,  
Ham kema to'xtatilar.  
Barcha chiqar qirg'oqqa,  
Knyaz chorlar qo'noqqa,  
Ziyofat bazm qurar,  
Undan so'ng savol so'rar:  
«Xo'sh, ne savdo etasiz,  
Endi qayon ketasiz?»  
Javob aytar qo'noqlar:  
«Dunyo kezdik ko'p choqlar,  
Sotdik nuqul ayg'ir ot,  
Don otlari — bedov zot,  
Muhlat yetdi bu zamon,  
Jo'naymiz uzoq tomon:

Orol bor — nomi Buyan,  
Biz yoqalab o'tgaymiz,  
Ham shavkatli shoh Saltan —  
O'lkasiga yetgaymiz».  
Knyaz so'z ular so'zga:  
«Janoblar, oq yo'l sizga,  
Dengiz, okeandan o'ting,  
Shavkatli shohga yeting;  
Ayting: — knyaz Gvidon —  
Yubordi senga salom».

**Q**o'noqlar qulluq etdi  
Va yo'lga tushib ketdi...  
Knyaz suv bo'yida yurar,  
Suvda oqqushni ko'rar.  
Qistar: yana ketay, deb,  
Va otamga yetay, deb.  
Oqqush ham suv sochar mo'l,  
Boshdan-oyoq yigit ho'l,  
Va bo'lib pashsha surat,  
Ucha qoldi shu fursat,  
Kemaga qo'nib oldi,  
Teshikda yota qoldi.

**Y**el esar, o'ynab yurar,  
Yelkema sho'x yugurar,  
Orollardan o'tadi,  
Shoh yurtiga yetadi,  
Olisdan jozibador —  
Ko'rinar aziz diyor;  
Chiqar bari qirg'oqqa,  
Saltan chorlar qo'noqqa.

Pashsha ham uchib qoldi,  
Va saroydan joy oldi;  
Ko'rsaki: shohlarga xos —  
Kiyinib zarrin libos —  
Saltan taxtda o'tirar  
Ham g'amgin xayol surar.  
Toj yarqirar boshida,  
Lekin, uning qoshida —  
Kampir, to'quvchi, oshpaz, —  
O'ylari nuqul g'araz,  
Sassiq baqaday qo'rqinch —  
Baqrayib qarar notinch.  
Shoh ziyofat quradi,  
Keyin savol so'radi:  
«Janoblar, ne ko'rdingiz,  
Ham qaylarda yurdingiz?  
Ne gap uzoq tomonda?  
Ne mo'jiza jahonda?»  
Javob aytar qo'noqlar:  
«Dunyo kezdik ko'p choqlar,  
Yaxshi yurtlarda yurdik,  
Shunday mo'jiza ko'rdik:  
Dengizda bir orol bor,  
Va bir shaharki, zarkor...  
Zar qubba butxonalar,  
Bog'chalar, koshonalar,  
Va o'rda burchagida —  
O'sadi baland archa,  
Baland archa tagida —  
Yasog'lik billur uycha;  
Unda yashar olmaxon,  
Qo'lbola, ziyrak hayvon,  
Olmaxon kuylar, qandoq,  
Ham chaqar nuqul yong'oq,






Puchmas chaqqan yong'og'i,  
Oltin hamma po'chog'i,  
Mag'zi — zumraddan nuqul;  
Poylar qancha qorovul,  
Xizmatda qancha malay,  
Mirza esa tinchimay —  
Yong'oq hisobin olar,  
Lashkar salomga kelar...  
Po'stloqlardan pul quyib —  
O'lkalarga oshirar.  
Qizlar zumradni uyib,  
Qaznoqlarga yashirar.  
U yerda hamma boy, to'q,  
Bari saroy, chayla yo'q.  
Unda knyaz Gvidon;  
Yubordi senga salom».  
Shoh Saltan hayron edi:  
«Agar o'lmasam, — dedi, —  
Shu orolga borgayman,  
Knyazga mehmon bo'lgayman».  
Kampir, to'quvchi, oshpaz,  
O'ylari faqat g'araz:  
Saltan hech bormasin, der,  
Orolni ko'rmasin, der,  
To'quvchi sasib kular,  
Ham so'zni so'zga ular:  
«Bu — kimga ham yoqarmish!  
Olmaxon tosh chaqarmish,  
O'ynarmish oltin sochib,  
Zumrad olarmish ochib,  
To'plarmish uyum-uyum,  
Kimga kerak u buyum,  
Rostmi, yolg'on — kim bilar,  
Kim ham quloqqa ilar,

Bu qiziq imga arkor,  
Bundan ajoyibi bor:  
Dengiz ko'pirib, toshar,  
Bo'sh qirg'oqlardan oshar,  
Va shovqin-suron solar,  
Har yon chopqillab qolar,  
Paydo bo'lar shu zamon —  
O'ttiz uchta pahlavon.  
Tanlari o'tday yonur,  
Bari yosh, dov va yovqur,  
Bari savlatli, ko'rkam,  
Norg'ul, azamat, o'ktam;  
Bari terilgan raso,  
Boshliq — Chernomor bobo;  
Mana sizga ajoyib—  
Mo'jizaki — g'aroyib».  
Mehmonlar indashmaydi,  
Bahslashmoq istashmaydi,  
Ochilar shohning bahri;  
Qistab pashshaning qahri,  
Chaqar o'nglab o'zini,  
Xolasin chap ko'zini.  
Xola rangi oqarar,  
«Voy!» der va qiyshiq qarar,  
Baqirishar: «Ushla, tez!  
Ha! Tutib ol, darrov ez!  
Ha seni!...» — deb quvlashar  
Ti pirlashar, chuvlashar.  
Knyaz-chi, darchadan o'tar —  
Beparvo uchib ketar...


**K**nyaz sohilda yurar,  
Suvga termilib turar;

Ko'ngli nechundir noxush,  
Boqsaki — yuzar oqqush.  
«Salom, jonginam — knyaz o'g'lon,  
Bulutli kun singari,  
Yog'ingar tun singari —  
Nechun holing parishon,  
Ne sabab ko'ngling noxush?»  
Deb so'rar undan oqqush...  
Knyaz aytdi shu chog'da:  
«Armon meni ezmoqda;  
Eshitdim g'alati gap,  
Va shunga qildim talab,  
Ha deb elitar meni».  
«Nimasi g'alat, qani?»  
«Qaydadir, okean toshar.  
Bo'sh qirg'oqlardan oshar,  
Va shovqin-suron solar,  
Haryon chopqillab qolar,  
Suvdan chiqar shu zamon —  
O'ttiz uchta pahlavon;  
Tanlari o'tday yonur,  
Bari dov, yosh va yovqur;  
Bari savlatli, ko'rkam,  
Norg'ul, azamat, o'ktam,  
Bari terilgan raso,  
Boshliq — Chernomor bobo».  
Oqqush yigitga dedi:  
«Tashvishing shumi edi?  
O'ksima, jonginam, san,  
Bilaman bu sirni man.  
Bu — dengiz botirlari;  
Tug'ishganlarim bari;  
Qayg'urmayin, jo'nay qol,  
Qo'noqlaring kutib ol!»

**K**nyaz xursand, jo'nab qoldi,  
Dengiz tomon ko'z soldi  
Minorada o'tirib,  
Birdan dengiz quturib,  
Hayqirib, toshdi shunda,  
Qirg'oqdan oshdi shunda;  
Paydo bo'ldi shu zamon —  
O'ttiz uchta pahlavon,  
Tanlari o'tday yonur,  
Bari dov, yosh va yovqur,  
Botirlar qo'shoq-qo'shoq,



Sochlari oq — yaltiroq;  
Bobo yo'l boshlab kelar,  
Shaharga qarab yelar.  
Minoradan knyaz tushar,  
Ular bilan ko'rishar.  
Turar qadrdonlari,  
Bahodir mehmonlari.  
Xalq shoshar, zich hamma yer,  
Knyazga bobo shunday der:  
«Oqqushdan keldik, o'g'lon,  
Va shundoq bo'ldi farmon,  
Biz shahringga soqchimiz,  
Kechalar poyloqchimiz;  
Shu bugundan har mahal,  
Birga bo'lurmiz tugal —



Suvdan chiqib yurgaymiz,  
Qal'a qo'rib turgaymiz,  
Xayr, tezda ko'rishamiz,  
Biz dengizga tushamiz,  
Yer havosi ko'p og'ir»  
So'ng bari ketdi bir-bir...



El dengizda sayr etar,  
Kemani surib ketar.  
Kema to'lqin yoradi,  
Yelkan ochib boradi,  
Yuzar orol yonidan;  
Zo'r shahar tomonidan,  
Qirg'oqdan to'p otilar,  
Va kema to'xtatilar;  
Hamma chiqar qirg'oqqa,  
Knyaz chorlar qo'noqqa,  
Ziyofat, bazm qurar,  
Undan so'ng savol so'rar:  
«Xo'sh, ne savdo etasiz,  
Endi qayon ketasiz?»  
Javob aytar qo'noqlar:  
«Dunyo kezdik ko'p choqlar,  
Oldi-sotdi bor yumush:  
Po'lat-u oltin, kumush;  
Muhlat ham yetdi bu choq,  
Yo'limiz hali uzoq,  
Orol bor nomi — Buyan,  
Biz yoqalab o'tgaymiz,  
Ham shavkatli shoh Saltan —  
O'lkasiga yetgaymiz».  
Knyaz so'z ular so'zga:  
«Janoblar, oq yo'l sizga,

Dengiz, okeandan o‘ting,  
Shavkatli shohga yeting;  
Ayting: knyaz Gvidon  
Yubordi senga salom».

**Q**o‘noqlar qulluq etdi  
Va yo‘lga tushib ketdi...  
Knyaz suv bo‘yida yurar,  
Yuzgan oqqushni ko‘rar,  
Yolborar: toqatim-toq,  
Uchmoq istayman tezroq...  
Oqqush ham suv sochdi mo‘l,  
Boshdan-oyoq yigit ho‘l;  
Qarasaki shu fursat  
Bo‘libdi ari surat,  
Vizillab ucha ketdi,  
Kemani quvib yetdi;  
Qo‘ndi orqa eshikka,  
Va joylandi teshikka...

**Y**el esar, o‘ynab yurar,  
Yelkema sho‘x yugurar,  
Orollardan o‘tadi,  
Shoh yurtiga yetadi.  
Olisdan jozibador —  
Ko‘rinar aziz diyor;  
Chiqar bari qirg‘oqqa,  
Saltan chorlar qo‘noqqa;  
Ari ham uchib qoldi,  
Va saroydan joy oldi.  
Ko‘rsaki shohlarga xos —  
Kiyinib zarrin libos,



Saltan taxtda o'tirar,  
Va g'amgin xayol surar,  
Toj yarqirar boshida,  
Lekin, uning qoshida,  
Kampir, to'quvchi, oshpaz,  
O'ylari nuqul g'araz —  
O'tirishar ayrilmay,  
O'qrayishar qayrilmay...  
Shoh ziyofat quradi,  
Qo'noqlardan so'radi:  
«Janoblar, ne ko'rdingiz?  
Ham qaylarda bo'ldingiz?  
Ne gap uzoq tomonda?  
Ne mo'jiza jahonda?»  
Javob aytar qo'noqlar:  
«Dunyo kezdik ko'p choqlar,  
Yaxshi yurtlarda yurdik,  
Shunday mo'jiza ko'rdik:  
«Dengizda bir orol bor,  
Va bir shaharki, zarkor,  
Juda g'alati orol,  
Unda har kun qiziq hol,  
Dengiz ko'pirar, toshar,  
Bo'sh qirg'oqlardan oshar,  
Va shoqvin-suron solar,  
Har yon chopqillab qolar;  
Paydo bo'lar shu zamon —  
O'ttiz uchta pahlavon,  
Tanlari o'tday yonur,  
Bari dov, yosh va yovqur,  
Bari savlatli, ko'rkam,  
Norg'ul, azamat, o'ktam,  
Bari terilgan raso.  
Keksa Chernomor bobo —

Birga chiqar dengizdan,  
Saf tuzib, boshlar izdan,  
Bari orolga soqchi,  
Kechalari poyloqchi;  
O‘shalarday hech qachon  
Bo‘lmas dov, tanti posbon,  
Unda knyaz Gvidon  
Yubordi senga salom».  
Shoh Saltan hayron edi:  
«Agar o‘lmasam, — dedi, —  
Shu orolga borgayman,  
Knyazga qo‘noq bo‘lgayman».  
Jim to‘quvchi va oshpaz,  
Shum kampir o‘ylab g‘araz,  
Tirjayib bunday dedi:  
«Qizig‘i shumi edi?  
Suvdan chiqishib yurar,  
Orolni ko‘rib turar!  
Rostmi, yolg‘on — kim bilar  
Kimni bu hayron qilar,  
Va bu kimga ham darkor?  
Olamda o‘zga gap bor:  
Dengizning u yonida,  
O‘zining makonida —  
Bir shoh qiz yashar, ko‘rkam...  
Ko‘z uzib bo‘lmas hech ham.  
Kunduz — kun xira bo‘lur,  
Tunda — olam nur olur.  
Soch tagida — oy qalqar,  
Manglayda — yulduz balqar,  
Yursa xo‘b sollanadi,  
Tovusday tovlanadi.  
So‘zi hammaga yoqar,  
Bulo suviday oqar.

Mo'jizaki ajoyib,  
joyib-u g'aroyib».  
Mehmonlar indashmaydi,  
Bahslashmoq istashmaydi.  
Ochilar shohning bahri,  
Qistar shahzoda qahri,  
Buvisin so'zi yoqmas,  
Lek, ayab ko'zin chaqmas;  
Ko'p aylanar boshida,  
Ham g'ing'illar qoshida,  
Qo'nar to'g'ri burniga,  
Xuddi qo'ngan o'miga —  
Raso nayzasin tiqar,  
Burun tez shishib chiqar.  
Yana boshlandi shov-shuv:  
«Ko'makka keling... yohu!  
Qorovul... ha, ushla tez!  
Tutib ol, ayama, ez!  
Ha seni!..» deb quvlashar,  
To'pirlashar, chuvlashar,  
Ari darchadan o'tdi,  
Bahuzur uchib ketdi.

Knyaz sohilda yurar,  
Suvga termilib turar,  
Ko'ngli nechundir, noxush,  
Ko'rsaki — yuzar oqqush.  
«Salom jonginam — knyaz o'g'lon!  
Bulutli kun singari,  
Yog'ingar tun singari —  
Nechun holing parishon?  
Ne vajdan ko'ngling noxush?»  
Savol so'raydi oqqush...  
Knyaz javob der shu choqda:



«Xasrat meni ezmoqda:  
Hammaning sevgani bor,  
Yolg'iz men qoldim beyor!»  
«Bormi bir ko'z solganing,  
Ko'z ostiga olganing?»  
«Bormish dunyo bog'ida,  
Dengizning u yog'ida,  
Shohqiz yasharmish ko'rkam...  
Ko'z uzib bo'lmas hech ham.  
Kunduz — kun xira bo'lur,  
Tunda — olam nur olar.  
Soch tagida — oy qalqar,  
Manglayda — yulduz balqar,  
Yursa xo'p sollanadi,  
Tovusday tovlanadi.



Soʻzi hammaga yoqar,  
Buloq suviday oqar,  
Bilmayman rostmi-yolgʻon?»  
Qoʻrqib soʻz kutar oʻgʻlon;  
Oqqush oʻylanar edi,  
Oʻylanib shunday dedi:  
«Ha, toʻgʻri! Shunday qiz bor,  
Lekin anglaginki: yor —  
Qoʻlqopmas otsang har yon,  
Belga qistirsang har on.  
Kengashimga quloq sol,  
Har yoqlama oʻylab ol,  
Afsus qilmagin keyin,  
Oʻzingga boʻlur qiyin».  
Yod qilar knyaz qasam:  
«Keldi oʻylanmoqqa dam,  
Hammasin oʻylaganman,  
Hech nima qoʻymaganman;  
Sevdim oʻsha barnoni,  
Izlayman keng dunyoni,  
Mayli, yayov chopaman,  
U shoh qizni topaman».  
«Uh, — der qush birdaniga, —  
Olisdan izlash nega?»  
Baxting — yaqin, rost soʻzim:  
Oʻsha shoh qiz — men oʻzim!»  
Soʻng oqqush parvoz etib,  
Toʻlqinlar osha oʻtib,  
Tushib panaroq joyga,  
Qirgʻoqdagi toʻqayga,  
Silkindi-yu, shaylandi,  
Va shoh qizga aylandi.  
Soch tagida — oy qalqar,  
Manglayda — yulduz balqar,

Xo‘p ulug‘vor sollanar,  
Tovus kabi tovlanar,  
So‘zi hammaga yoqar,  
Buloq suviday oqar.  
Shoh qizni quchib o‘g‘lon,  
Bag‘riga bosib shodon,  
Darrov yetaklab ketar,  
Onajoniga yetar:  
Va bosh egib der shu dam:  
«Jonginam, onaginam!  
Sayladim o‘zimga yor,  
Senga qiz — itoatkor.  
So‘raymiz biz, ikovlon:  
Davri-davron surmoqqa,  
Uzoq umr ko‘rmoqqa —  
Fotiha ber onajon!»  
O‘midan turar ona,  
Boshlarida parvona,  
Karomatli xoch tutar,  
Ko‘zlaridan yosh to‘kar:  
«Qo‘sha qaring, iloyim —  
O‘zi qo‘llasin doim...»  
Knyaz paysallamay hech,  
To‘y ham qildi o‘sha kech;  
Birga umr etishar,  
Birga farzand kutishar...

**Y**el dengizda sayr etar.  
Kemani surib ketar;  
Kema to‘lqin yoradi,  
Yelkan ochib boradi;  
O‘tar orol yonidan,  
Zo‘r shahar tomonidan,




Qirg'oqdan to'p otilar,  
Ham kema to'xtatilar;  
Hamma chiqar qirg'oqqa,  
Knyaz chaqirar qo'noqqa.  
Ziyofat, bazm qurar,  
Undan so'ng savol so'rar:  
«Xo'sh, ne savdo etasiz,  
Endi qayon ketasiz?»  
Javob aytar qo'noqlar:  
«Dunyo kezdik ko'p choqlar,  
O'ylamang, bekor yotdik,  
Nuqul yasoq mol sotdik.  
Yo'limiz hali uzoq:  
Sharqqa jo'naymiz bu choq.  
Orol bor — nomi Buyan —  
Biz yoqalab o'tgaymiz,  
Ham shavkatli shoh Saltan  
O'lkasiga yetgaymiz».  
Knyaz so'z ular so'zga:  
«Janoblar, oq yo'l sizga,  
Dengiz, okeandan o'ting,  
Saltan yurtiga yeting,  
Shohingizga eslating,  
Safarini tezlatning,  
Bizga kelmoqchi edi,  
Mehmon bo'lmoqchi edi,  
Lekin bedarak hamon,  
Ayting, mendan ko'p salom».  
Qo'noqlar ketdi tugal,  
Knyaz Gvidon bu gal —  
Qoldi o'z makonida,  
Sevgan yori yonida...

Yel esar, o'ynab yurar,  
Yelkema sho'x yugurar,  
Orollardan o'tadi,  
Shoh yurtiga yetadi.  
Olisdan jozibador —  
Ko'rinar aziz diyor.  
Chiqar bari qirg'oqqa,  
Saltan chorlar qo'noqqa.  
Qo'noqlar kelib ko'rar:  
Saltan taxtda o'tirar,  
Toj yarqirar boshida,  
Va Saltanning qoshida —  
Kampir, to'quvchi, oshpaz,  
O'ylari nuqul g'araz —  
O'tirishar ayrilmay,  
Baqrayishar qayrilmay...  
Shoh ziyofat quradi,  
Qo'noqlardan so'radi:  
«Janoblar, ne ko'rdingiz,  
Ham qaylarda bo'ldingiz,  
Ne gap uzoq tomonda?  
Ne hodisa jahonda?»  
Javob aytar qo'noqlar:  
«Dunyo kezdik ko'p choqlar,  
Yaxshi yurtlarda yurdik,  
Shunday mo'jiza ko'rdik:  
Dengizda bir orol bor,  
Ham bir shaharki dongdor...  
Zar qubba butxonalar,  
Bog'zorlar, koshonalar;  
O'rdaning etagida  
O'sadi baland archa,  
Baland archa tagida —  
Yasog'lik billur uycha:



Unda yashar olmaxon,  
Qo'lbola, ziyrak hayvon,  
Olmaxon kuylar, qandoq,  
Ham chaqar nuqul yong'oq;  
Puchmas chaqqan yong'og'i,  
Oltin hamma po'stlog'i;  
Mag'zi zumraddan nuqul,  
Poylar talay qorovul,  
Olmaxonni asrashar,  
Unda ko'p yangi xabar.  
Dengiz ko'pirib toshar,  
Bo'sh qirg'oqlardan oshar,  
Va shovqin-suron solar,  
Har yon chopqillab qolar,  
Suvdan chiqar shu zamon —  
O'ttiz uchta pahlavon,  
Tanlari o'tday yonur,  
Bari dov, yosh va yovqur,  
Bari savlatli, ko'rkam.  
Norg'ul, azamat, o'ktam,  
Bari terilgan raso,  
Boshliq — Chernomor bobo,  
O'shalarday hech qachon,  
Bo'lmas dov, tanti posbon.  
Bor knyaz yori ko'rkam,  
Ko'z uzib bo'lmas hech ham:  
Kunduz — kun xira bo'lur,  
Tunda — olam nur olur,  
Soch tagida — oy qalqar,  
Manglayda — yulduz balqar.  
U shaharda Gvidon —  
Nomli knyaz hukmron,  
Tillarda doston u nom.  
Senga aytdi ko'p salom.





O'pkasi bor: shoh Saltan —  
Bizga kelmoqchi edi,  
Mehmon bo'lmoqchi edi,  
Daragi yo'q, der, hamon...»

**S**abri qolmay, shoh turdi,  
Darg'alarga buyurdi:  
«Yaxshi kemalar saylang,  
Va safar uchun shaylang!»  
Kampir, to'quvchi, oshpaz,  
O'ylari nuqul g'araz,  
Shoh Saltan bormasin, der.  
Orolni ko'rmasin, der.  
Lekin, shoh solmay quloq,  
Qahri qistab der shu choq:  
«Men — shohmi yoki go'dak?»  
Ketaman bu gal, beshak!»  
Yer tepar, chiqib ketar,  
Eshikni tars berkitar...

**K**nyaz uyda o'tirar,  
Derazadan qarab turar:  
Dengiz tinch, to'lqin urmas,  
Shovqin solmas, ko'pirmas,  
Havo tiniq va zangor,  
Paydo bo'ldi kemalar.  
Dengizda yelar edi,  
Shoh Saltan kelar edi.  
Knyaz bir sakrab turdi,  
Va qattiq na'ra urdi:  
«Aziz onam, malikam!  
Va sen — sevgilim, bekam!

Qarang anov tomonga:  
Otam kelar bu yonga».  
Kema kelar yonashib,  
Knyaz durbin olar shoshib,  
Ko'rsa: turar shoh chindan,  
U ham qarar durbindan.  
Kampir, to'quvchi, oshpaz,  
O'ylari nuqul g'araz —  
Boqishar hayron va lol,  
Turar begona orol...  
Zambaraklar taranglar,  
Qo'ng'iroqlar jaranglar,

Knyaz kelar qirg'oqqa,  
Shohni kutib olmoqqa;  
To'quvchi, oshpaz bilan  
Kampir — serg'araz bilan —  
Shohni shahriga boshlar,  
Indamay qadam tashlar.  
Hamma saroyga yurdi,  
Va soqchilarni ko'rdi:  
Sovutlari yaraqlar,  
Darvozani xo'b saqlar  
O'ttiz uchta pahlavon,  
Ajablanar shoh Saltan,



Bari yosh, bari ko'rkam,  
Norg'ul, azamat, o'ktam,  
Bari terilgan raso,  
Boshliq — Chernomor bobo,  
Hovliga o'tar barcha,  
Hovlida baland archa,  
Olmaxon kuylar, qandoq,  
Ham chaqar oltin yong'oq;  
Chaqib — zumrad olardi,  
Qopchiqlarga solardi.  
To'lib ketipti har yoq,  
Zar yong'oq, oltin po'choq.  
Qo'noqlar shoshqin... nega?  
Paydo bo'ldi yosh beka:  
Soch tagida — oy qalqar,

Manglayda — yulduz balqar.  
Ulug'vor sollanardi,  
Tovusday tovlanardi...  
Qaynonasi ham kelar,  
Shoh ko'rib, darrov bilar,  
G'ayrati jo'sh uradi,  
Tajang va lol so'radi:  
«Senmisan? So'zla axir, —  
Bu ne o'zi, qanday sir?»  
Toshar, tutaqar edi,  
Ko'z yoshi oqar edi.  
Shoh quchar malikasin,  
O'g'lin va yosh bekasin.  
Yozilar dasturxonlar,  
Bazm qurar mehmonlar.





Ham to'quvchi, ham oshpaz,  
Ham kampirki, serg'araz —  
Yashiringani chopdilar...  
Keyin zo'rg'a topdilar...  
Qilmishlariga iqror,  
Ho'ngrashardi zor-u zor.  
Shoh xursandlik tufayli,  
Uyga jo'nang, der, mayli...  
Kech kirar, to'y qizishar,  
Saltanni yotqizishar,  
To'shakni qalin solar,  
Shirakayf shoh dam olar.  
Men shu to'yda bor edim,  
Bo'za ichdim, bol yedim.  
Sal ho'llandi mo'y labim,  
Shu yerda adoq gapim.





A decorative frame in red and yellow colors surrounds the text. The top part features a crown-like motif with a central yellow diamond and red accents. The sides are decorated with vertical columns of yellow and red diamond shapes, topped with ornate, pointed structures. The bottom part has a horizontal base with a central yellow diamond and red accents, flanked by curved, arch-like elements.

BALIQCHI  
VA  
BALIQ  
HAQIDA  
ERTAK

**Q**tgan choqda dengiz bo'yida,  
Chol va kampir umr surgandi;  
Yerto'lada — eski uyida  
O'ttiz uch yil birga turgandi.  
Chol to'r solib ovlarkan baliq,  
Kampir esa yigirar urchiq.  
Chol dengizga to'r solsa bir gal,  
Baqa yaproq ilindi yolg'iz.  
To'r solganda chol ikkinchi gal  
Ilindi-ku dengiz o'lani.  
To'r solganda chol uchunchi gal,  
To'rga tushdi bir kichik baliq,  
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq,  
Oltin baliq xuddi odamday,  
Tilga kirib yolvorib qoldi:  
«Qo'yib yubor dengizga, bobo,  
Katta to'lov to'layman senga,  
Ko'ngling ne tilasa bergayman».



Hayron bo'ldi, qo'rqib ketdi chol:  
O'ttiz uch yil baliq ovladi,  
Ammo baliq so'zlaganini,  
Eshitmagan edi umrida.  
Chol baliqni qo'yib yubordi,  
Shunday dedi unga mehribon:  
«Oltin baliq, tangri yor bo'lsin,  
Kerak emas menga to'loving,  
Mayli, tushgil moviy dengizga,  
Erkin-erkin o'ynab yuraver!»



Chol qaytdi-da kampir yoniga,  
Aytdi shundoq qiziq mo'jiza:  
«Tutib oldim bugun bir baliq;  
Jo'n baliqmas — naq oltin baliq;  
Baliq tilga kirib so'zladi,  
Ko'p yalindi qo'yib yubor, deb,  
O'z uyiga — moviy dengizga;  
Katta to'lov to'layin, dedi,  
Ne istasang berayin, dedi;  
Men olgani botinolmadim,  
Qo'yvordim moviy dengizga».




Cholni qarg'ay boshladi kampir:  
«Ey tentak chol, go'l, devona chol!  
Ololmabsan baliqdan to'lov!  
Hech bo'lmasa bitta tog'ora —  
So'rab olmaysanmi undan sen,  
Tog'oramiz teshik-ku axir!»



Chol jo'nadi moviy dengizga,  
Mavj urmoqda dengiz qarasa,  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
«Nima kerak senga, chol bobo?»  
Ta'zim bilan javob berar chol:  
«Poshsho baliq, holimga achin,  
Xo'b urishdi kampirim meni:  
Tinchlik bermas, qariding demas,  
Kerak emish yangi tog'ora,  
Tog'oramiz teshilgan axir».







Oltin baliq aytadi javob:  
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,  
Borgil, berdim yangi tog'ora».  
Chol qaytsaki kampir yoniga,  
Tog'oralik bo'libdi kampir.  
Lekin urishdi kampir battarroq:  
«Ey tentak chol, go'l, devona chol!  
Kir tog'ora so'rab oldingmi?  
Kir tog'ora mol bo'larmidi?  
Jo'na, tentak, baliqqa borgil,  
Ta'zim qil-u, endi uy so'ra».

Chol jo'nadi moviy dengizga,  
(Moviy dengiz loyqalanardi)  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
«Nima kerak senga, chol bobo?»  
Ta'zim qilib shunday dedi chol:  
«Poshsho baliq, holimga achin,  
Meni kampir qarg'adi battar,  
Tinchlik bermas, qariding, demas,  
Jag'i tinmas, uy so'rab nuqul».  
Oltin baliq aytadi javob:  
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,  
Borgil, uy ham bo'ladi nasib».  
Yerto'lasi tomon qaytsa chol,  
Yerto'ladan iz ham qolmabdi,



Mo'rilari g'ishtdan, oqlangan,  
Eman yog'ochidan yasalgan —  
Darvozalik bir uy turibdi,  
Uy yonida mehmonxona bor.  
Derazaning yonida esa,  
O'tiribdi kampir taltayib,  
Qarg'amoqda cholni battarroq:  
«Ey tentak chol, go'l, devona chol!  
Kelib-kelib uy so'rabsan-da!  
Jo'na darrov baliq yoniga,  
Ta'zim qilgin unga sen tag'in:  
Qora dehqon bo'lmayman ortiq,  
Men — begoyim bo'lish istayman!»

Chol jo'nadi moviy dengizga,  
(Dengiz notinch, to'lqin urmoqda).  
Chaqiradi baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
«Nima kerak senga, chol bobo?»  
Ta'zim qilib chol shunday dedi:  
«Poshsho baliq, holimga achin,  
Kampirni jin urdi battarroq,  
Tinchlik bermas, qariding, demas,





Qora dehqon bo'lmasmish ortiq,  
U begoyim bo'lish istarmish!»

Oltin baliq aytadi javob:

«Qayg'urma, bor, tangri yor bo'lsin!»

**Ch**ol qaytadi kampir yoniga.

Nima ko'rar? Baland bir saroy;

Peshayvonda turar kampiri,

Suvsar po'stin uning egnida,

Boshida ham alvon dakana,

Qator-qator inju bo'ynida,

Qo'llarida oltin uzuklar,

Oyog'ida qirmizi etik.

Atrofida oqsoch xotinlar,

Qoq o'rtada kampir turardi,

Sochlaridan sudrab urardi,

Kampiriga so'z qotadi chol:

«Salom, aslzoda, begoyim!

Ko'ngling endi to'ldi shekilli!»

Kampir unga o'shqirdi battar,

Otxonada ishlashga soldi.

**Q**tdi hafta ketidan hafta,  
Kampir tag'in mindi qahriga.

Baliq tomon yo'lladi cholni:

«Tez bor, ta'zim qilgil baliqqa:

Ortiq men begoyim bo'lmayman,

Poshsho xotin bo'lish xohlayman!»

Qo'rqib ketdi chol, shunday dedi:

«Eshak miya yedingmi, kampir?

Yurish-turish nima — bilmaysan,

Poshsholik masxara bo'ldimi!»

Kampir battar mindi qahriga:  
Chol yuziga tarsaki urdi:  
«Qora dehqon, qanday botinding,  
Kim qo‘yipti senga so‘z aytmoq,  
Menga — menday begoyimga-ya?  
Yaxshilikcha jo‘nab qol, deyman,  
Jo‘natgayman bog‘lab, bormasang».

**Ch**ol dengizga qarab yo‘l oldi,  
(Moviy dengiz qora rang oldi).  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so‘radi undan:  
«Nima kerak senga, chol bobo?»  
Ta‘zim qilib so‘z aytadi chol:  
«Poshsho baliq, holimga achin!  
Kampir tag‘in boshladi g‘avg‘o!  
Bo‘lmas emish ortiq begoyim,  
Bo‘lur emish erkin malika!..»  
Oltin baliq beradi javob:  
«Qayg‘urmagil, tangri yor bo‘lsin!  
Mayli, kampir bo‘lur malika!»

**Ch**ol qaytadi tez kampir yoniga,  
Qarasaki, shohona qasr,  
Qasr to‘rida ko‘rinar kampir,  
O‘tirardi malika bo‘lib.  
Xizmatida beklar, amirlar,  
Asl sharob quyib bermoqda,  
Ham malika quymoq yemoqda;  
Atrofida talay yasovul,  
Yelkalarda oyboltalari.  
O‘rab turar endi bahaybat,

Buni ko'rib, qo'rqib ketdi chol,  
Va so'z aytar yetti bukilib:  
«Savlatli malikam, salomalaykum!  
Shoyad endi to'lgandir ko'ngling!»  
Qayrilib ham boqmadi kampir:  
«Tez haydang!» deb buyurdi, xolos.  
Sakrab turib beklar, amirlar,  
Cholni sudrab hayday soldilar.





Yasovullar eshik yonida  
Sal bo'lmasa chopayozdilar.  
Mazax qilib qoldi olamon:  
— Qilig'ingdan topding, nodon chol.  
Bundan keyin bo'lg'usi saboq:  
O'z ko'rpangga qarab cho'z oyoq!  
O'tdi hafta ketidan hafta  
Kampir battar mindi qahriga;  
Erini izlatar chopar yuborib,

Cholni topib keldilar axir.  
Kampir shunday dedi choliga:  
«Jo'na tag'in baliq yoniga,  
Ta'zim qilib, o'tingil darrov,  
Bo'lmagayman ortiq malika,  
Dengiz shohi bo'lish istayman,  
Xizmatimda tursin baliq ham,  
Baliq bo'lsin menga chopovull!»

Botinolmas so'z aytishga chol,  
Bo'la olmas kampir so'zini;  
Tag'in bordi moviy dengizga,  
Qora quyun ko'rar dengizda:  
To'lqinlar o'shqirar g'azabkor,  
Ham to'lg'anar, ham uvlar tinmay,  
Chol chaqirar baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
«Nima kerak senga, chol bobo?»  
Ta'zim qilib unga aytar chol:








«Poshsho baliq, holimga achin,  
Jonga tegdi la'nati kampir,  
Ortiq bo'lmas emish malika,  
Dengiz shohi bo'lish istarmish,  
Va dengizda yashash istarmish,  
Sen ham borarmishsan xizmatga,  
Bo'larmishsan unga chopovul».

Bitta soʻz ham demadi baliq,  
Suvga urib dumini faqat,  
Gʻoyib boʻldi dengiz tagiga.  
Javob kutib turdi shoʻrlik chol,  
Uzoq qolib dengiz boʻyida.  
Qaytdi kampir yoniga axir,  
Koʻrsa: tagʻin oʻsha yertoʻla,  
Boʻsagʻada oʻtirar kampir,  
Qarshisida teshik togʻora.







O'LIK  
BEKACH  
VA  
YETTI  
BAHODIR  
HAQIDA  
ERTAK



**V**origa aytib vido,  
Otlandi safarga shoh,  
Darichada malika  
Uni kutadi yakka.  
Kecha-yu kunduz kutmish,  
Yo'llariga ko'z tutmish.  
Kuta-kuta nihoyat  
Ko'zlari tolmish g'oyat.  
Lekin, yordan yo'q nishon!  
Faqat quturar bo'ron,  
Qorlarga to'lmish har yoq,  
Hamma yer bo'lmish oppoq...  
Yor yo'lidan ko'z uzmay,  
O'tib ketmish to'qqiz oy.  
Xayit kechasi xudo  
Unga qiz etmish ato.  
Erta tongda, ko'p uzoq —  
Kutilgan aziz qo'noq: —  
Shoh qaytmishdi safardan,  
Begona o'lkalardan.  
Malika shohga boqib,  
Xo'rsinibdi dil yoqib.  
Shodlanganidan chunon,  
Tushga borib bermish jon.

**S**hoh uzoq tortmish alam,  
Ne chora? Banda u ham.  
Bir yil tushday o'tibdi,  
Shoh boshqa xotin opti.  
Chinakam ham u dilbar,

Malikalarga o'xshar,  
Oppoqqina, hushqomat,  
Aql-u didda alomat,  
Lekin, mag'rur va baxil,  
Erka, kunchi, qora dil,  
Sepi bor ekan — ko'zgu,  
Ko'p hikmatli ekan u;  
Ko'zgu so'zlay olarkan,  
Malika quvonarkan,  
Faqatgina u bilan,  
Hikmatli ko'zgu bilan,  
Xursand, hazillasharkan,  
Zeb berib, so'zlasharkan:  
«So'zla, aziz oynajon,  
Haqiqatni qil bayon:  
Men emasmi dunyoda  
Hammadan ham ziyoda,  
Oppoq, go'zal va yaxshi,  
Yuzim yuzlarning naqshi?»  
Oyna derkan javoban:  
«Shubhasiz dunyoda san  
Oppoq, go'zal va yaxshi,  
Yuzing yuzlarning naqshi».  
Malika qah-qah urib,  
Ishva qilib, buralib,  
Suzib ko'zi-qovog'in,  
Qirsillatib barmog'in,  
Qo'l belda kerilarkan,  
Ko'zguga termilarkan.


**V**a lekin yosh bekach ham  
Ohista bo'lib ko'rkam,  
Kun sayin o'sa ketmish,

O sib kamolga yetmish.  
Yuzlari oq, qora qosh,  
Xushfe'l, rahmdil, yuvosh,  
Malikaga kuyov ham  
Topila qolmish shu dam;  
U — shahzoda Yelisey,  
Aslzoda Yelisey.  
Sovchiga shoh ko'nibdi,  
Darrov sep ham unibdi:  
Yetti savdo shahari,  
Yuz qirq koshonalari.

**Y**

**U**z ko'rishga o'tlanib,  
Malika xo'b bezanib,  
Ko'zguga termulibdi,  
Unga savol beribdi:  
«Men emasmi dunyoda,  
